



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSHLARNI BILIM OLISH UCHUN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR, ILM-FAN VA INNOVASYALARGA QIZIQTIRISHNING NOAN'ANAVIY USULLARI

Umarova Mashhura Muhammadodilovna

Farg'ona ko'p tarmoqli texnikumi uslubchisi.

Kuramatova Sanobarxon Ashurovna

Farg'ona ko'p tarmoqli texnikumi maxsus fan o'qituvchisi.


Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi globallashuv davrida yoshlarni noan'anaviy usullar bilan kreativ fikrlash va tahlil qilishga o'rgatish, ularni ilm-fan, innovatsiyalarga qiziqtirish usullari yoritilgan bo'lib, bu borada mamlakatimizda shiddatli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek yoshlar ilm-fan va innovatsiyalarga oid qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar aks ettirilgan. Bugungi fan-texnika rivojlangan bir davrda ham ilmli bo'lish igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli ish bo'lib qolmoqda. Bugungi kundagi yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyat va shart-sharoitlarga monan yosh avlod uchun ilm egasi ziyoli inson bo'lib etishish va etishtirish uchun hammamiz birdek ma'suldirmiz.*

Kalit so'zlar: *ilm-fan, renessans, kreativ, yoshlar, fuqarolik jamiyati, texnologiya, innovatsion faoliyat, normativ-huquqiy hujjat, xalqaro, vaqt, yoshlik, g'oya-takliflar, globallashuv, texnika.*

ВОЗМОЖНОСТИ, СОЗДАННЫЕ ДЛЯ МОЛОДЕЖИ ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ, И НЕТРАДИЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ИНТЕРЕСА К НАУКЕ И ИННОВАЦИЯМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: *В современную эпоху глобализации в данной статье описываются способы научить молодежь творчески мыслить и анализировать с использованием нетрадиционных методов, заинтересовать их наукой и инновациями, в связи с чем в нашей стране осуществляются интенсивные реформы. Также отражен ряд принятых нормативных правовых документов, касающихся молодежной науки и инноваций. Даже в сегодняшнюю эру передовой науки и техники быть ученым все равно, что копать колодец иглой. Все мы в равной степени ответственны за развитие и воспитание молодого поколения как интеллигентной, обладающей знаниями личности в соответствии с возможностями и условиями, созданными для современной молодежи.*

Ключевые слова: *наука, ренессанс, творчество, молодежь, гражданское общество, технологии, инновационная деятельность, нормативно-правовой документ, интернационал, время, молодежь, идеи-предложения, глобализация, технологии.*





OPPORTUNITIES CREATED FOR YOUTH TO GET YEDUCATION AND NON-TRADITIONAL METHODS OF INTEREST IN SCIENCE AND INNOVATIONS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: *In today's era of globalization, this article describes ways to teach young people to think creatively and analyze using unconventional methods, to interest them in science and innovation, and in this regard, intensive reforms are being implemented in our country. Also, a number of adopted regulatory legal documents related to youth science and innovation are reflected. Yeven in today's advanced science and technology era, being a scientist is as hard work as digging a well with a needle. All of us are equally responsible for the development and training of the young generation as an intelligent person with knowledge in accordance with the opportunities and conditions created for today's youth.*


Key words: *science, renaissance, creative, youth, civil society, technology, innovative activity, regulatory legal document, international, time, youth, ideas-suggestions, globalization, technology.*

“Sizlar ko‘p kitob o‘qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o‘tmishda jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg‘oniyalar, Beruniy va Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda.”

Shavkat Mirziyoyev

Bugun dunyoda aholining eng katta qismi bolgan yoshlarni qo‘llab quvvatlash, ularni yod g‘oyalar va tahdidlardan asrash kun tartibidagi dolzarb masala hisoblanadi.

Kelajak avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga yanada kengroq jalb etish zamonaviy taraqqiyotining muhim tendensiyalaridan biridir. Shu bois yoshlar masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi ayni haqiqat. O‘zining yangi tarixiy taraqqiyoti davrida yuqori bosqichiga intilayotgan O‘zbekiston zaminida IX-XII asrlarda Birinchi Renessans, XIV-XV asrlarda Ikkinchi Renessans davri hisoblangan. Umumbashariy sivilizatsiyasiga o‘zining beqiyos hissalarini qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizning davomchisi sifatida Uchinchi Renessans- bugungi yoshlar qo‘lidadir. Bugungi fan-texnika rivojlangan bir davrda ham ilm egallash igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli ish bo‘lib qolmoqda. Binobarin raqobat kuchaygan, ilmiy yangiliklarga talablar oshgan globallashuv davrida mamlakatimizda ilmiy-innovatsion faoliyatni qo‘llab quvvatlash, iqtidorli yoshlarni nufuzli, milliy va xalqaro olimpiadalar, musobaqalar, tanlovlarda salmoqli natijalar qo‘lga kiritishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada yoshlarni an‘anaviy fikrlashdan kreativ-tahlil qilishga o‘rgatish, ilm-fan va innovatsiyalarga bo‘lgan






munosabatini o'zgartirish, zamon talablariga moslashtirish hamda yosh olimlarni qo'llab quvvatlash yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotining eng muhim asosiy yo'nalishlarining shartidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga qiziqtirishning noan'anaviy usullarini jamiyat hayoti va ta'lim tizimiga tadbiq etish lozim. Masalan ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash, nazariyani amaliyot bilan uyg'unligini anglatga, barcha ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, yoshlarning startap loyihalarini qo'llab quvvatlashga qaratilgan platformalarni yaratish, kelajak egalari ishtiyoqini yanada oshirib, ilm-fanga bo'lgan qiziqishini yuksaltiradi. Ilmiy muassasa va tashkilotlarning ilmiy salohiyatini oshirish, xorijiy nufuzli ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, yosh olimlar va ilmiy tadqiqotchilar almashinuvini yanada kengroq amalga oshirish Uchinchi Renessans sari dadillik bilan qarab borayotganimizni ko'rsatadi. Umuman olganda, renessans tushunchasi fanda ilk bor italyan gumanistlari tomonidan qo'llanilgan. Lekin bu so'zni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lafzidan eshitib, uning shukuhini, quvvatini o'zgacha hayrat va mas'uliyatni yoshlarga yuklayotgani rost gap. Bir ko'rishdan qilinayotgan harakatlar salmoqli, biroq natijalar xususida bunday deyishga hali erta. Qonun bilan belgilangan imtiyozlar o'z manziliga etib borishi, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishda ham ba'zi oqsashliklar mavjud. Demak muammolar hali etarlicha topiladi. Masalaning echimini topishda, mamlakatda ilm-fanni yanada rivojlantirishda yoshlarning o'rnini mustaxkamlash zarur. Qariyb 20 million yoshlari bor O'zbekiston bunday katta va yangi avlod bilan yangi uyg'onish davrining tamal toshini qo'yish arafasidadir.

Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasida katta o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Milliy taraqqiyotning hozirgi bosqichi o'zining ochiqligi, so'z erkinligining keng rivojlanishi va jamiyatni erkinlashtirish bilan ajralib turadigan "Yangi O'zbekiston" deb nomlana boshlandi. Sifat jihatdan yangi jamiyatimizda yosh avlodni kamol toptirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Davlat rahbarining doimiy ravishda yoshlar bilan uchrashib turishi, ularning dolzarb muammolari bilan qiziqishi va shu bilan birga uning shaxsiy tashabbusi bilan yoshlar parlamenti, Yoshlar ishlari bo'yicha agentlik tashkil etilganligi yoshlarga bo'lgan ishonchidir. Davlatimiz rahbari boshchiligida amalga oshirilayotgan strategik sa'y-harakatlar kun kelib Uchinchi Renessansga poydevor bo'lishini jamiyatimiz taraqqiyotiga befarq bo'lmagan har bir kishini harakatga keltirmoqda. Axir, mudroq jamiyatni, odamlarni uyg'otishning o'zi UYG'ONISHning – RENESSANSning debochasi emasmi! Bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emasligi, bugungi yoshlar – kechagi yoshlar emasligini isbotlashga hojat qolmaganining o'ziyoq zalvorli natijasi emasmi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan birga, mamlakatimizda yoshlarimizga o'zlari istagan oliy ta'lim muassa-sasida taxsil olib, etuk mutaxassis bo'lib etishishlari uchun barcha shart





sharoitlar yara- tilmoqda. Har yili yangi xalqaro oliy ta'lim muassasalari O'zbekistonda o'z faoliyatlarini boshlab, yoshlarimizni ta'lim olishlari uchun imkoniyatlar eshiklarini ochmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bir necha o'nlab yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi. Shuningdek 2020-2021 o'quv yilidan yana bir yangi tizim joriy etildi: kam ta'minlangan oilalarda ulg'ayayotgan qizlarimizning bilim olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida Oliy ta'lim dargohlarida ular uchun davlat granti asosida 940 ta qo'shimcha o'rin ajratildi. Joriy o'quv yilida esa bu raqamlar 2 barobar oshishi kutilmoqda. Bu o'zgarishlar iste'dodlarning intilishlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun muhim poydevordir! Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz bironta sohaning rivojlanishi mumkin emas. Shu ma'noda, zaxmatkash, fidoyi ustozlarimizni, murabbiylarimizni va olimlarimizni Xudo bergan odam, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ularni boshqalar bilan teng qilish mumkin emas. Ularni asrab avaylashimiz, har tomonlama qo'llab quvvatlashimiz lozim. Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Milliy taraqqiyotimizning yangi davrida xalqmizda yangicha dunyoqarash- ni shakllantirish, ayniqsa, yoshlarni milliy yuksalish g'oyasi atrofida birlashtirish, ularni ilm-fan yutuqlari hamda raqamli texnologiyalar bilan qurollantirish orqali kuchli fuqaro-lik jamiyatini shakllantirishda dastur-ul amal bo'lib xizmat qiladi.

Haqiqatan ham, uzoqni ko'zlagan har qanday rejaning asosini sifatli ta'lim tashkil etadi. Ko'hna Xitoy mutafakkiri Konfutsiy: "Agar rejangiz bir yillik bo'lsa, sholi eking, o'n yillik bo'lsa, daraxt eking, yuz yillik bo'lsa – bolalaringizga ta'lim bering", deya bejiz ta'kidlamagan. Kelajakda kutilgan "hosil"ni yig'ish uchun O'zbekistonimizda hozirdan keng imkoniyatlar yaratilmoqda, yoshlarni ilm-u ma'rifatga rag'batlantirish, ilm egalarini qadrlashga qaratilgan tizim shakllantirilmogda. O'z navbatida, yoshlar ham shaxsiy rivojlanishi uchun motivatsiya manbalarini o'zlari topa bilishi kerak – u kitob yoki kinoasar, sport va sayohat bo'lsin. Imkoniyat yaratilsa o'qiyman, deydigan emas, har qanday vaziyatda ham bilim olish va rivojlanishga harakat qilaman deydigan yigit-qizlarimiz safi kengayishi uchun butun bir boshli millat mas'ul bo'lishi lozim.

Biz yashab turgan shu muqaddas zaminda Uyg'onish – Renessans boshlangan paytlar Yevropa hali g'aflat uyqusida bo'lganini ko'pchilik yoshlar bilmasa kerak. Bu tarixiy haqiqatni Yevropaning etuk olimlari tan olganini ham bilmaydiganlar bordir balki. Har qalay, atoqli nemis sharqshunosi Adam Mesning "Musulmon Renessansi", akademik Nikolay Konradning "Sharq Renessansi" konsepsiyasi osmondan tushgan emas. Agar "Die Renaissance des Islams" kitobini ushbu mavzudagi bosh manba deb hisoblaydigan bo'lsak, Adam Mesdek buyuk olim fundamental tadqiqotini yaratishda ulug' vatandoshimiz Beruniyning ilmiy merosiga tayanganidan faxrlanmay bo'ladimi!






MUHOKAMA

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5544-sonli «2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiya to'g'risida»gi Farmonida asosiy vazifalardan biri etib 2030 yilga qadar respublikamizni Global innovatsion indeks baholash reytingida etakchi 50 ta davlatlar qatoriga kiritilishi belgilangan.

Bugungi kunda ishlab chiqarish sohasiga yuqori texnologiyalarni tatbiq etish va ilmiy tadqiqotlarga yoshlarni jalb etish talab etilmoqda. Bularning bari yoshlarni no'anaviy usullari orqali ilm-fan va innovatsiyalarga kengroq jalb etishning mexanizmi bo'lib xizmat qilmoqda. Yoshlarni ilm-fan bilan qamrab olishning yana bir muhim strategik jarayon amalga oshirilmoqda. 2020-yil 29-oktabr kuni PF-6097 sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmoniga ko'ra: Yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish borasida: Ilmiy tashkilotlar tadqiqotchilarining o'rtacha yoshini 2025-yilga qadar 45 ga, 2030-yilgacha esa 39 ga etkazish. 2025-yilga qadar 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning umumiy sonida yuqori malakali ilmiy xodimlarning (fan nomzodi, falsafa va fan doktorlari) ulushini 2 baravarga, 2030-yilgacha esa 3 baravarga oshirish ko'zda tutilgan. Qaniydi shu harakatlar oldinroq boshlangan bo'lsa edi, yoshlarimiz oramizda ilmiy yoshlarining soni ko'payib, bir qator ko'rsatkichlarda sifatga erishilgan bo'lar edi. Jumladan "Biznesni yuritish", "Iqtisodiy erkinlik", "Inson kapitali", "Innovatsiya" singari bir qator global reytinglarda O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imij va pozitsiyasi bundanda ko'ra sezilarli ravishda oshgan bo'lar edi.



E





TAKLIFLAR:

1. Talaba-yoshlarning axborot texnologiyalari va kompyuter savodxonligini yanada oshirish, ularni innovatsiyalarga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida har bir oliy ta'lim muassasasida yoshlarni innovatsiyalarga yo'naltiradigan, ilg'or g'oyalari va startup loyihalarini qo'llab quvvatlaydigan zamonaviy texnologiyalar bilan maxsus jihozlangan Innovatsiya markazini tashkil etish;

2. Yoshlarni ilm-fan bilan yanada kengroq qamrab olish, ilmga oid bo'lgan masalalarni yoshlar o'z qarashlari, mustaqil fikrlash va noan'anaviy ravishda kreativ tahlil qila oladigan bo'lajak yosh olimlarni qo'llab quvvatlash maydonini yaratish, ya'ni Talabalar ilmiy kengashini tashkil etish;

3. Nazariyani amaliyot bilan uyg'unlashtirish maqsadida ijtimoiy-gumanitar fanlarda taxsil olayotgan talabalarni o'z mutaxassisliklari bo'yicha olayotgan nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlash uchun har haftaning bir kunida amaliy tajriba mexanizmini yaratish;

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hammaga yashash uchun har kuni 24 soat beriladi. Hayot mana shu- bizga berilgan lahzalar sarhisobi. Tog'ri, u qisqa. Ammo qadriga etib, o'tkinchi hayotning mohiyatini tushunib oqilona yashalsa, bu- bir marta huzurlanib yashash uchun etarli fursat. Garchi hayot yillar bilan o'lchansa ham, biz umr deganda baxtli daqiqalar, go'zal xotiralarni eslaymiz. Aytishadi-ku, bir kunlik umrda ham bir asrlik hayot kechirsa bo'ladi. Buning uchun umrga munosib bo'lish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari", Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019, 55 bet.

2. Shuxrat Sattorov, "Biz g'alaba qozonamiz", "Bilim va intellektual salohiyat" nashriyoti 2018

3. <https://mininnovation.uz/oz/news/2322> <https://xs.uz/uz/post/alisher-sadullaev-yoshlar-uchinchi-renessans-drajverlari-bolaoladimi>

4. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28 may kuni ilm-fan va oliy ta'limsohasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosiga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan. <https://kun.uz/uz/news/2019/05/28>

5. PF-6097 sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi prezident farmoni. <https://lex.uz/docs/-5073447>

6. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. <https://www.lex.uz/ru/docs/-4545884>

7. "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. <https://lex.uz/docs/-4571490>

